



\_\_\_\_\_ hokimligi  
maktabgacha va maktab ta'limi  
boshqarmasi

\_\_\_\_\_ maktabgacha va  
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi  
\_\_\_\_-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
biologiya fani o'qituvchisi  
\_\_\_\_\_ning

20\_\_-20\_\_-o'quv yilida  
5-11-sinflar bo'sh o'zlashtiruvchi  
o'quvchilar uchun biologiya fanidan

**TO'GARAK**  
**HUJJATLARI**

### To'garak a'zolari haqida ma'lumot

<b><i>Nº</i></b>	<b>Familiya ismi va sharifi</b>	<b>Tug'ilgan sanasi</b>	<b>Sinfi</b>	<b>Manzili (to'liq)</b>	<b>Ota-onasi (Ismi sharifi)</b>	<b>Telefon (uy yoki mobil)</b>	<b>Izoh</b>
<i>1.</i>							
<i>2.</i>							
<i>3.</i>							
<i>4.</i>							
<i>5.</i>							
<i>6.</i>							
<i>7.</i>							
<i>8.</i>							
<i>9.</i>							
<i>10.</i>							
<i>11.</i>							
<i>12.</i>							
<i>13.</i>							
<i>14.</i>							

15.							
16.							
17.							
18.							
19.							
20.							
21.							
22.							
23.							
24.							
25.							
26.							
27.							
28.							
29.							
30.							

*O'tkazilgan xona* \_\_\_\_\_





20\_\_-20\_\_-o‘quv yilida bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar uchun tuzilgan  
 “Yosh biolog” to‘garagining  
 ISH REJASI

№	Yillik ish reja mavzulari	Soat	Sana	Izoh
1.	Biologiya - hayot haqidagi fan	1		
2.	Dengiz bo‘shliqichlilari	1		
3.	Qalqonoldi, gipofiz, ayrisimon bez, buyrakusti bezlari, ularning tuzilishi va funksiyasi	1		
4.	Muskullarning rivojlanishi, odam qad-qomatining shakllanishi	1		
5.	Yadro va uning tuzilishi	1		
6.	Biolog olimlar	1		
7.	Ekologiyaning rivojlanishi, bo‘limlari va metodlari	1		
8.	Organizmlarning yashash muhiti. Suv muhiti	1		
9.	Butli o‘rgimchakning tuzilishi va hayot kechirishi	1		
10.	Ikki qanotlilar turkumi	1		
11.	Ovqat hazm qilish sistemasi organlari	1		
12.	Biomolekulalar	1		
13.	Eukariot hujayra. Hujayra qobig‘i	1		
14.	Golji majmuasi	1		
15.	O‘simliklarning namlikka nisbatan ekologik guruhleri va ularning moslanishlari	1		
16.	Umurtqasiz hayvonlar	1		
17.	Ko‘l baqasining tashqi tuzilishi, skeleti va muskullari	1		
18.	Ko‘k kaptarning tashqi tuzilishi	1		
19.	Nerv sistemasining funksiyasi	1		
20.	Nerv sistemasi kasalliklari va ularning oldini olish	1		
21.	Rivojlanishning umumiy qonuniyatlari. Biogenetik qonun. Embriionlarning o‘xshashlik qonuni	1		
22.	Gametogenez	1		
23.	Sun‘iy ekosistemalar	1		
24.	Biogeotsenozlarning almashinuvi	1		
25.	Qo‘lqanotlilar va kemiruvchilar turkumlari	1		
26.	Tuyoqli sutemizuvchilar	1		
27.	Noallel genlarning o‘zaro ta‘siri	1		
28.	Odamdagi irsiy kasalliklar	1		
29.	Biosferaning tarkibi	1		
30.	Biosferadagi tirik moddaning xususiyatlari va funksiyalari	1		
31.	Hid bilish va ta‘m bilish organlari	1		
32.	Bolaning o‘sishi va rivojlanishi	1		
33.	Hayvonlarning tana qoplami va harakat organlari evolutsiyasi	1		
34.	Hayvonlarning ayirish va jinsiy organlari evolutsiyasi	1		

Sana: “\_\_” \_\_\_\_\_ 20\_\_-yil. Sinflar: \_\_\_\_\_. To‘garak rahbari: \_\_\_\_\_

**Mavzu:** Biologiya - hayot haqidagi fan

**Maqsadlar:**

a) o‘quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg‘otiladi, ular mavzu asosida kerakli bilim va ko‘nikmalar hosil qilish, mavzuga oid tarqatilgan topshiriqlarni yakka va guruh holatida o‘rganib, o‘zlashtirishga erishish. Suhbat-muhokama orqali o‘quvchilarning ongi mavzuni qay darajada o‘zlashtirganligini nazorat qilish.

b) o‘quvchilarda o‘simlik dunyosiga nisbatan mehr uyg‘otish, tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalash.

v) o‘quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirish, darslik ustida mustaqil ishlash ko‘nikmalari, nutq va muloqot madaniyatini rivojlantirish.

**O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

**Kommunikativ kompetensiya:**

o‘quvchi biologik tushunchaga ega bo‘lishi, tushunchalarning mohiyatini anglashi, ularni yangi vaziyatlarda imkoniyat darajasida o‘z ona tilida hamda birorta xorijiy tilda dastlabki tushunchalarini ishlata olishi.

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

o‘quvchi biologiya fanining yangiliklari, rivojlanishi bo‘yicha respublikamizda amalga oshirilayotgan ishlar haqidagi ma’lumotlarni ilmiy ommabop materiallardan foydalanib, zarur ma’lumotlarni izlab topa olishi.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

o‘quvchi biologiya fanining ilmiy-amaliy soha ekanligini, uning inson va tabiatdagi ahamiyatini anglashi, biologiya fani o‘rganadigan obyekt, hodisa, jarayonlarni, tirik organizmlar ustida kuzatish va tajribalar olib borishni o‘rganishi va ularda faol ishtirok etishi.

**Mashg‘ulot turi:** noanaviy, ko‘rgazmali, hamkorlikda ishlash yangi tushuncha va bilimlarni shakllantirish.

**Mashg‘ulot jihozi:** mavzuga oid ko‘rgazmali qurollar, tarqatma materiallar, guruhlar uchun rag‘bat kartochkalari.

**I.Tashkiliy qism:** salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni mashg‘ulotga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. Yangi mavzu bayoni:**

Biologiya sohalari. Biologiya – tiriklik, hayot haqidagi fan.

Yunoncha «bios» – hayot, «logos» – fan, ta’limot degan ma’noni anglatadi.

O‘rganish obyektiga ko‘ra biologiya bir qancha sohalarga bo‘linadi:

- 1) botanika – o‘simliklar haqidagi fan;
- 2) zoologiya – hayvonlar haqidagi fan;
- 3) mikologiya – zamburug‘lar haqidagi fan;
- 4) mikrobiologiya – kichik jonzotlarni o‘rganuvchi fan;
- 5) sitologiya – hujayra haqidagi fan;
- 6) anatomiya – tirik organizmning ichki tuzilishini o‘rganadi;
- 7) sistematika – tirik organizmlarni o‘xshash belgilariga ko‘ra guruhlariga bo‘lib o‘rganuvchi fan;

8) fiziologiya – tirik organizmda boradigan jarayonlarni o‘rganadi;

9) genetika – irsiyat va o‘zgaruvchanlik haqidagi fan;

10) ekologiya – tirik organizmlarning o‘zaro va tashqi muhit bilan munosabatlarini o‘rganadi


Odamzod qadimdan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanib keladi. Agar u o‘simliklarning tuzilishi va xususiyatlarini yaxshi bilsa, mo‘l hosil oladi, yaxshi daromadga ega bo‘ladi. Chorvachilikda ham hayvonlarni qanday boqish, ularda uchraydigan kasalliklarni bartaraf qilish choralari yaxshi bilsa, qo‘y va mollari ko‘payib, ko‘plab go‘sht va teri mahsulotlarini olishi mumkin

**III. Mustahkamlash:**

1. Biologiya qanday sohalarga bo‘linadi?

2. Tirik organizmning tashqi va ichki tuzilishini o‘rganuvchi fanlar qanday nomlanadi?

**IV. Uyga vazifa:** Savollarga javob yozing



Maktab MMIBDO ‘\_\_\_\_\_’ \_\_\_\_\_ sana \_\_\_\_\_ 20\_\_yil

Sana: “\_\_” \_\_\_\_\_ 20\_\_-yil. Sinflar: \_\_\_\_\_. To‘garak rahbari: \_\_\_\_\_

## **Mavzu: Dengiz bo‘shliqchililari.**

### **Maqsadlar:**

a) o‘quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg‘otiladi, ular mavzu asosida kerakli bilim va ko‘nikmalar hosil qilish, mavzuga oid tarqatilgan topshiriqlarni yakka va guruh holatida o‘rganib, o‘zlashtirishga erishish. Suhbat-muhokama orqali o‘quvchilarning ongi mavzuni qay darajada o‘zlashtirganligini nazorat qilish.

b) hayvonot olamiga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish, tabiatni sevishga, uni asrab-avaylashga undash, o‘quvchilarni ekologik ta‘lim-tarbiya ruhida tarbiyalash.

v) - o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, nutq madaniyatini oshirish, o‘z-o‘zini boshqarishga yo‘naltirish, hotirjamlik, topqirlik xususiyatlarini rivojlantirish, o‘quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirish, darslik ustida mustaqil ishlash ko‘nikmalari, nutq va muloqot madaniyatini rivojlantirish.

### **O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

#### **Kommunikativ kompetensiya:**

o‘zi yashab turgan hududdagi hayvonlarni taniy olish, ularning nomlarini va yozilishini bilish.

#### **Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

hayvonot dunyosi haqidagi ma‘lumotlarni qaysi axborot vositalaridan olishni bilish, ulardan foydalana olish, hayvonot olami haqidagi ma‘lumotlarni ajrata olish.

**Mashg‘ulot turi:** Aralash mashg‘ulot, suhbat, munozara, noanaviy, ko‘rgazmali, hamkorlikda ishlash yangi tushuncha va bilimlarni shakllantirish.

**Mashg‘ulot jihozi:** mavzuga oid ko‘rgazmali qurollar, tarqatma materiallar, mavzuga oid javdallar, mavzuga oid video roliklar, guruhlar uchun rag‘bat kartochkalari.

**I.Tashkiliy qism:** salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni mashg‘ulotga tayyorgarliklarini tekshirish.

### **II. Yangi mavzu bayoni:**

Dengiz bo‘shliqchililariga dengizlar tubida yakka o‘troq yashaydigan aktiniyalar va o‘troq koloniya hosil qiladigan korall poliplar hamda suv qa‘rida erkin suzib yurib hayot kechiradigan meduzalar kiradi. Yakka o‘troq yashovchi aktiniyalar tanasining tuzilishi va shakli gidraga o‘xshash bo‘ladi. Lekin ancha yirik (tana diametri 0,5 m gacha) va rangli bo‘lishi bilan gidradan farq qiladi. Paypaslagichlari og‘iz teshigi atrofida bir necha qator bo‘lib joylashgan. Aktiniyalar suv tubidagi narsalarga yopishib yashaydi, ba‘zan tovonida asta-sekin harakat qiladi. Ayrim aktiniyalar zohid qisqichbaqalar va baliqlar bilan simbioz yashashga moslashgan. Simbioz yashash har ikkalahayvon uchun ham foydali bo‘ladi. Qisqichbaqa esa aktiniyani o‘zi topgan ozig‘iga sherik qiladi.

### **III. Mustahkamlash:**

Koloniya hosil qiluvchi poliplar koloniyasi gidraga o‘xshash tuzilgan juda ko‘p sonli poliplardan iborat. Koloniyadagi poliplarning ichki bo‘shliqlari o‘zaro tutashgan bo‘ladi. Shuning uchun har bir polipning tutgan ozig‘i hamma koloniya a‘zolari o‘rtasida teng taqsimlanadi. Koloniya hosil qiluvchi poliplar mayda organik qoldiqlar va mikroorganizmlar bilan oziqlanadi. Ko‘pchilik turlarining tanasi devorida ohak skelet hosil bo‘ladi. Qattiq skeletli, koloniya bo‘lib yashovchi bo‘shliqchililar korall poliplar deb ataladi. Koloniya bo‘lib yashovchi poliplar jinsiy ko‘payganda tuxumdan chiqqan lichinkasi aktiniyalar lichinkasi singari suv tubiga yopishib, kichkina polip hosil qiladi.

### **IV. Uyga vazifa:**

1. Aktiniyalar qanday tuzilgan?
2. Korall poliplar koloniyasi qanday hosil bo‘ladi?





Sana: “ ” \_\_\_\_\_ 20\_\_yil. Sinflar: \_\_\_\_\_. To‘g‘arak rahbari: \_\_\_\_\_

**Mavzu:** Qalqonoldi, gipofiz, ayrisimon bez, buyrakusti bezlari, ularning tuzilishi va funksiyasi.

**Maqsadlar:**

a) odam organizmining tuzilishi, undagi organlar sistemasi, to‘qimalar va organlarning faoliyati, o‘shish va rivojlanish qonuniyatlari haqida tushuncha berish, o‘quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg‘otish, mavzu asosida kerakli bilim va ko‘nikmalar hosil qilish, mavzuga oid tarqatilgan topshiriqlarni yakka va guruh holatida o‘rganib, o‘zlashtirishga erishish.

b) odamning sog‘lom bo‘lishi hamda uzoq umr ko‘rishida jismoniy tarbiya hamda sportning ahamiyati, sog‘lom turmush tarziga rioya qilishni tushuntirish, biologiya va tibbiyotga oid bilimlarini kengaytirish.

v) salomatlik odam organizmining biologik, aqliy, ruhiy, jismoniy holatlari va mehnat faoliyatining muvozanatlashgan birligi haqida tushuncha berish, O‘zbekiston Respublikasida sog‘lom, jismonan baquvvat, bilimli, ma‘naviy-axloqiy yetuk, har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirish.

**O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

**O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

doimiy ravishda o‘zini o‘zi jismoniy, ma‘naviy, ruhiy va intellectual rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o‘qib-o‘rganish.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o‘zining fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilish.

**Milliy va umummadaniy kompetensiyasi:**

vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e‘tiqodli bo‘lishni, badiiy va san‘at asarlarini tushunish.


**Mashg‘ulot turi:** mavzuga oid yangi ma‘lumotlarni o‘quvchilarga yetkazishda yangi texnologiyalardan foydalanish, yozma, og‘zaki, ko‘rgazmali aralash mashg‘ulot, suhbat, munozara, noananaviy, hamkorlikda ishlash, yangi tushuncha va bilimlarni shakllantirish.

**Mashg‘ulot jihozi:** mavzuga oid ko‘rgazmali qurollar, tarqatma materiallar, mavzuga oid jadvallar, mavzuga oid video roliklar, slaydlar, guruhlar uchun rag‘bat kartochkalari.

**I.Tashkiliy qism:** salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni mashg‘ulotga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. Yangi mavzu bayoni:**

Qalqonoldi bezlari to‘rtta bo‘lakdan iborat. Qalqonsimon bez orqa yuzasida joylashgan bo‘lib, uning to‘qimasiga botib kirgan. Bezlar ishlab chiqargan paratgormon qonda kalsiy va fosfor miqdorini boshqaradi. Nerv va muskul qo‘zg‘aluvchanligiga ta‘sir qiladi. Bu gormon organizm o‘shishida muhim ahamiyatga ega. Bezlar funksiyasi ortib, paratgormon ko‘p ishlab chiqarila boshlasa, qonda kalsiy miqdori o‘rtadi, suyaklar yumshab, deformatsiyaga uchraydi. Nervmuskul sistemasi qo‘zg‘aluvchanligi pasayib, tana muskullari bo‘shashadi, odam holsizlanib, tez charchaydigan bo‘lib qoladi. Paratgormon qonda D vitamini bo‘lgamda smtezlanadi. Qalqonoldi bezi funksiyasi pasayganida qonda kalsiy miqdori kamayib, nerv-muskul qo‘zg‘aluvchanligi ortadi, qovoq va lablar pիրpirab, qo‘llar qaltiraydi, ya‘ni tutqanoq (tetaniya) sodir bo‘ladi. Gipofiz bezi. No‘xat shaklida, bosh miya ostki yuzasida joylashgan. Og‘irligi katta yoshli odamlarda 0,5-0,6g bo‘ladi.



**III. Mustahkamlash:**

Gormonlarni ularga mos keladigan xususiyadar bilan birga juftlab yozing: A - tiroksin, B - adrenalin, D - androgen, E - paratgormon, F - estrogen; 1 - qonda kalsiy va fosfor miqdorini boshqaradi, 2 jinsiy bezlar faoliyatini boshqaradi, 3 ayollar jinsiy gormoni, 4 - moddalar almashinuvi, nerv sistemasi qo‘zg‘aluvchanligini oshiradi, 5 - nerv qo‘zg‘alishini kuchaytirib, muskullar toliqishini kamaytiradi.

**IV. Uyga vazifa:**

1. Nima sababdan qalqonsimon bez oldi bezlari funksiyasi kuchayganida suyaklar yumshab, deformatsiyaga uchraydi va qiyshtayib qoladi?

Sana: “\_\_” \_\_\_\_\_ 20\_\_yil. Sinflar: \_\_\_\_\_. To‘garak rahbari: \_\_\_\_\_

**Mavzu:** Muskullarning rivojlanishi, odam qad-qomatining shakllanishi.

**Maqsadlar:**

a) odam organizmining tuzilishi, undagi organlar sistemasi, to‘qimalar va organlarning faoliyati, o‘shish va rivojlanish qonuniyatlari haqida tushuncha berish, o‘quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg‘otish, mavzu asosida kerakli bilim va ko‘nikmalar hosil qilish, mavzuga oid tarqatilgan topshiriqlarni yakka va guruh holatida o‘rganib, o‘zlashtirishga erishish.

b) odamning sog‘lom bo‘lishi hamda uzoq umr ko‘rishida jismoniy tarbiya hamda sportning ahamiyati, sog‘lom turmush tarziga rioya qilishni tushuntirish, biologiya va tibbiyotga oid bilimlarini kengaytirish.

v) salomatlik odam organizmining biologik, aqliy, ruhiy, jismoniy holatlari va mehnat faoliyatining muvozanatlashgan birligi haqida tushuncha berish, O‘zbekiston Respublikasida sog‘lom, jismonan baquvvat, bilimli, ma‘naviy-axloqiy yetuk, har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirish.

**O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

**O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

doimiy ravishda o‘zini o‘zi jismoniy, ma‘naviy, ruhiy va intellectual rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o‘qib-o‘rganish.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e‘tiqodli bo‘lishni, badiiy va san‘at asarlarini tushunish.


**Mashg‘ulot turi:** mavzuga oid yangi ma‘lumotlarni o‘quvchilarga yetkazishda yangi texnologiyalardan foydalanish, yozma, og‘zaki, ko‘rgazmali aralash mashg‘ulot, suhbat, munozara, noananaviy, hamkorlikda ishlash, yangi tushuncha va bilimlarni shakllantirish.

**Mashg‘ulot jihozi:** mavzuga oid ko‘rgazmali qurollar, tarqatma materiallar, mavzuga oid jadvallar, mavzuga oid video roliklar, slaydlar, guruhlar uchun rag‘bat kartochkalari.

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni mashg‘ulotga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. Yangi mavzu bayoni:**

Muskullarning rivojlanishi. Skelet va muskullar odanimng yoshlik davrida tez o‘shib, rivojlanadi. Muskullar 17 yoshgacha, ayniqsa, jadal o‘sadi. Bola o‘shishi va rivojlanishi bilan uning harakatlari ham xilma-xil bo‘lib, murakkablasha boradi. IB yoshli bola muskullari massasi katta yoshdagi odam muskullariga teng bo‘ladi. Mehnat qilish, jismoniy mashq va sport bilan shug‘ullanish skeletning to‘g‘ri shakllanishi, suyaklarning tez o‘shib, pishiq bo‘lishiga va muskullarning kuchli rivojlanishiga yordam beradi. Suyaklar va muskullarning rivojlanishi o‘zaro chambarchas bog‘langan. Muskullar rivojlanishi suyaklarga ham katta ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababdan muskullar qancha kuchli rivojlansa, suyaklar ham shuncha imistahkam bo‘ladi. Paylarning suyaklarga birikadigan joyida suyaklar yo‘g‘onlashib, bo‘rtmalar paydo bo‘ladi. Lekin suyakning o‘shishi davrida me‘yoridan ko‘p yuk ko‘tarish bo‘g‘imlarning kasallanishiga olib kelishi mumkin. Odam semirganida ham oyoqdagi bo‘g‘imlarning tayanch yuzasiga katta bosim tushib, og‘riq paydo bo‘ladi va oyoqlarning qon bilan ta‘minlanishi buziladi. Odamlarda bolalikda tayanch-harakat sistemasi shakllanishining buzilishi ularning katta yoshda bo‘g‘imlarning kasallanishiga olib keladi.



**III. Mustahkamlash:**

1. Muskullar ishining nerv boshqarilishida nerv impulslari o‘tadigan yo‘lni tartib bilan ko‘rsating; A - nerv markazi, B - muskullar, D - sezuvchi nervlar, E - organlardagi retseptorlar, F - harakatlaitiruvchi nervlar.

**IV. Uyga vazifa:**

1. Har qanday tana o‘z og‘irlik markaziga ega. Tinch turganda odam tanasi og‘irligi markazi tovon gumbaziga tushadi. Nima sababdan odam qoqilib ketganida oldinga, sirpanib ketganida esa orqaga yiqiladi?

Maktab MMIBDO‘ \_\_\_\_\_ sana- \_\_\_\_\_ 20\_\_-yil

*veb-saytimiz: [Zokirjon.com](http://Zokirjon.com)  
Hujjat Word variantda beriladi.*

*Zokirjon Admin bilan*

*90-530-00-68 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz yoki nza4567 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.*

*Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi*

*40 listdan iborat biologiya fanidan 5-11-sinf bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarga 34 soatli to'garakni to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.*




**Narxi: 20 ming so'm**

**Telegram kanalimiz:**

**@Maktablar\_uchun\_hujjatlar**

**To'lov uchun: UZCARD \*880\*9860230104973329\*summa#**

**Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**



**DIQQAT!!!**

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.  
To'liq holda olganingizdan so'ng:  
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.  
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.  
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.  
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA  
HIYONAT QILMANG.**